

## BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA TANQIDIY VA KREATIV FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH

**Saidova Gulruh Halim qizi**

T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston

Pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti doktoranti

### *ANNOTATSIYA*

*Ushbu maqolada "4K" modeli bo'yicha tanqidiy fikrlash, kreativlik, kommunikatsiya va kooperatsiya kompetensiyalarni shakllantirish imkonini beruvchi pedagogik texnikalardan foydalanish yo'llari, o'qituvchilarning ta'limiy faoliyatda qo'yilgan maqsadlarga to'liq erishish imkonini beruvchi usullar, 1-4-sinf o'quvchilarida kreativ va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning tasnifiy ko'rsatkichlari va bitiruvchilarga qo'yilgan talablar qiyosiy tahlili haqida so'z boradi.*

**Kalit so'zlar:** *"4K" modeli, kreativlik, tanqidiy fikrlash, kommunikatsiya, kooperatsiya.*

So'nggi bir necha yil ichida butun dunyo bo'ylab ta'lim tizimi, ayniqsa boshlang'ich ta'limda XXI asrning zamonaviy kompetensiyalari va ko'nikmalarini rivojlantirish uchun sharoit yaratishga harakat qilib, bilim va ko'nikmalarini shakllantirishda noan'anaviy yo'nalishdan foydalanilmoqda. XXI asrning turli xil ko'nikmalari va ta'lim natijalarida ushbu ko'nikmalarning turli xil qoidalariga qaramay, ularning to'plami ancha barqaror bo'lib qolmoqda[2, 430-bet].

Tanqidiy va kreativ fikrlash XXI asrda o'quvchilarda shakllantirilishi lozim bo'lgan asosiy ko'nikmalar hisoblanib, ular boshqa tayanch kompetensiyalar bilan birga, hayotiy, kundalik, va kasbiy muammolarga yechim topish imkonini beradi.

Bunday fikrlar ish beruvchilar va nufuzli tashkilotlar tomonidan ham e'tiroq etilayotganligini alohida ta'kidlab o'tish lozim. [1]

Jahon iqtisodiy forumining hisobotiga ko'ra, ish beruvchilar bitiruvchilarga qo'yilgan talablar orasida "tahliliy fikrlash va innovatsiya"ni birinchi, "muammolarga majmuaviy yechim topish"ni ikkinchi, "tanqidiy fikrlash va tahlil"ni uchinchi, "faol o'qish va o'rganish strategiyalari"ni to'rtinchi, "kreativlik, originallik va tashabbuskorlik"ni beshinchi o'ringa qo'yishgan (1-rasmga qarang). Agar 2022-yil bilan prognozida "tanqidiy fikrlash va tahlil" bilan "kreativlik, originallik, tashabbuskorlik" o'rin almashganligini ko'rish mumkin. "Faol o'qish va o'rganish strategiyalari" to'rtinchi o'rindan ikkinchi o'ringa ko'tarilgan. Bu esa, ish beruvchilar o'qish va o'rganishga hamma vaqt tayyor odamlarni ishga qabul qilishni hohlashayotganini ko'rsatadi [ 1,12-b].

Bugun, 2018 (Today, 2018)	Trendlar, 2022 (Trending, 2022)
Tahliliy fikrlash va innovatsiya (Analytical thinking and innovation)	Analitik fikrlar va innovatsiya (Analytical thinking and innovation)
Muammolarga majmuaviy yechim topish (Complex problem – solving)	Faol o'rganish va o'qitish strategiyalari (Active learning and learning strategies)
Tanqidiy fikrlash va tahlillar (Critical thinking and analysis)	Dizayn texnologiya va dasturlashtirish (Technology design and programming)
Faol o'qish va o'rganish strategiyalari (Active learning and learning strategies)	Kreativlik, originallik, tashabbuskorlik (Creativity, originality and initiative)
Kreativlik, originallik va tashabbuskorlik (Creativity, originality and initiative)	Tanqidiy fikrlash va tahlillar (Critical thinking and analysis)
Detallarga e'tibor qaratish, ishonchlik (Attention to detail, trustworthiness)	Muammolarni majmuaviy hal qilish (Complex problem – solving)
Emotsional intellekt (Emotional intelligence)	Tashkilotchilik va ijtimoiy faollik (Leadership and social influence)
Mulohaza yuritish, muammoni hal qilish va g'oya berish (Reasoning, problem – solving and ideation)	Emotsional intellekt (Emotional intelligence)
Tashkilotchilik va ijtimoiy faollik (Leadership and social influence)	Mulohaza yuritish, muammoni hal qilish va g'oya berish (Reasoning, problem – solving and ideation)
Coordination and time management (Muvofiqlashtirish va taym menejment)	Tizimli tahlil va baholash (Systems analysis and evaluation)

### 1-rasm. 2018- va 2022-yillarda bitiruvchilarga qo'yilgan talablar qiyosiy tahlili

Tanqidiy fikrlash va kreativlik o'zaro bir-biri bilan bog'liq yuksak kognitiv ko'nikmalardir. Ikkalasi ham katta intellektual kuch va ruhiy quvvatni talab qiladi hamda kognitiv nuqtai-nazardan murakkab hodisalar hisoblanadi. Tanqidiy fikrlash voqea-hodisalarga nisbatan mulohazali va mustaqil nuqtai-nazarni shakllantirish

uchun muqobil nazariya, g'oya, qarorlarni baholash bilan bog'liq bo'lsa, kreativlik yangi mahsulot, ho'ya va yechimlarni izlab topishni talab etadi. Ana shu sababli tadqiqot doirasida Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT)ning "Ta'lim tadqiqotlari va innovatsiyalar markazi"ning xalqaro loyihasi doirasiga tayangan holda kreativ salohiyat va tanqidiy fikrlashning taksonomik parametrlarini tizimlashtirdik (1-jadvalga qarang).

### 1-jadval

#### 1-4-sinf o'quvchilarida kreativ va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning tasnifiy ko'rsatkichlari (IHTT ko'rsatkichlari bo'yicha)

Ko'rsatkichlar	Kreativ fikrlash	Tanqidiy fikrlash
Tadqiq etish	Ma'lum bir fan sohasiga doir tushunchalar orasidagi aloqadorlikni topish	Umumiy qabul qilingan g'oyalar va yechimlarni aniqlash hamda ularga e'tiroz bildirish
Tasavvur qilish	Ko'plab g'oyalarni ilgari surish; kutilmagan va tavakkalchilikka asoslangan g'oyalar berishga intilish	Muammoni turli nuqtai-nazarlar bilan bog'liqlikda ko'rib chiqish
Bajarish	Noyob mahsulot/yechimlar taklif qilish /yaratish	Mantiq, etika va estetikaga asoslanib, mahsulot, yechim, nazariyaning kuchli va kuchsiz tomonlarini tushuntirish
Tahlil qilish va baholash	Taklif etilayotgan yechimning yangilik darajasi va undan foydalanish jarayonida yuzaga keladigan oqibatlarini baholash	Boshqa muqobil variantlar bilan taqqoslash orqali tanlangan yechim/pozitsiyani baholash

Ma'lumki, tanqidiy va kreativ fikrlashni shakllantirish bilan bog'liq g'oyalarning paydo bo'lishi qadimga davrlarga borib taqaladi. Hozirgi vaqtga qadar

tanqidiy fikrlash texnologiyasi asosida o'quvchilarning kreativ salohiyatini rivojlantirishga doir qator zamonaviy dastur va qo'llanmalar yaratilgan:

1. O'qish va yozish orqali tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasi (mualliflar: J.Stil, K.Meredit, Ch.Templ, S.Uolter).
2. Tanqidiy fikrlash. Rivojlanish texnologiyasi (mualliflar: I.Zagashev, S.Zair-Bek).
3. Darslarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish: o'qituvchilar uchun qo'llanma (mualliflar: S.Zair-Bek, I.Mushtavinskaya).
4. Tanqidiy fikrlash. Hayotda sodir bo'ladigan hamma narsalarning qat'iy mantiqi (mualliflar: N.Nepryaxin, T.Pashenko).
5. Pedagogik texnika usullari. O'qituvchilar uchun qo'llanma (muallif: A.Gin).
6. TRIZ-pedagogika. Kreativ fikrlashni o'rganamiz (muallif A.Gin).
7. Ijodiy fikrlash texnologiyasi (mualliflar: M.Meyerovich, L.Shragina).
8. Kreativlik. Miyani ishlatishga majburlashning 31 ta usuli (muallif: I.Namakonov).
9. Superfikrlash (mualliflar: Toni va Barri Byuzen).
10. Tanqidiy va kreativ fikrlashni rivojlantirishning pedagogik texnologiyasi (muallif: A.V.Stexov).
11. Boshlang'ich ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar (muallif: T.G'afforova).
12. O'quvchilarning bilish faolligini shakllantirish yo'llari (mualliflar: A.Kaldibekova, B.Xodjayeov).
13. O'quvchilarning mustaqil fikrlashini shakllantirish (muallif: B.Xodjayeov).
14. Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi. Metodik qo'llanma (mualliflar: D.Ro'ziyeva, M.Usmonboyeva, Z.Xoliqova).
15. Tasavvurni rivojlantiruvchi alifbe (muallif: U.Usmanova).
16. Tarbiya fanini o'qitish texnologiyasi. O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma (mualliflar: B.Xodjayeov, Sh.Sattarov, M.Artikova).

17. Maktab o‘quvchilarida hayotiy ko‘nikmalarni rivojlantirish. O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma (mualliflar: B.Xodjayev, Sh.Sattarov, M.Artikova, M.Raximova).

18. STEAM darslari. O‘qituvchi elektron kitobi (muallif: M.Tashibekova).

19. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kreativ salohiyatni shakllantirish texnologiyasi (muallif: K.Nuraliyeva).

Shuningdek, “Kelajak uchun sarmoya” xayriya jamg‘armasi o‘qituvchilar uchun o‘quvchilarda “4K” (kritik (tanqidiy) fikrlash, kreativlik, kommunikatsiya, kooperatsiya) kompetensiyalarni rivojlantirishga mo‘ljallangan shaxsiy salohiyatni rivojlantirish dasturi doirasida “Imkoniyatlar maktabi” ta’limiy mahsulotlar turkumiga doir metodik to‘plamni tayyorlagan va nashr ettirgan.

Metodik to‘plam quyidagilarni o‘z ichiga qamrab olgan: “4K”: darslarda shakllantirish va baholash” deb nomlangan pedagoglar uchun metodik tavsiyalar; darslar banki/topshiriq namunalari; darslarni loyihalash uchun pedagogik texnikalar to‘plami; “4K” uchun monitoring vositalari.

Metodik to‘plamdagi metodik tavsiyalarni umumlashtirib quyidagicha turkumlash mumkin: a) “4K” kompetensiyalar va ularning zamonaviy ta’lim bilan integratsiyasi; b) o‘quv topshiriqlarini ishlab chiqish va “4K” kompetensiyalarning shakllanganligini baholash uchun zarur materiallar; v) yangi amaliyotni tarqatish vositalari (kasbiy ta’lim oluvchilar hamjamiyati, “Darsni tadqiq etish metodikasi”).

Darslar banki/topshiriq namunalari 2-9-sinflar uchun matematika, rus tili va adabiyoti, tabiiy-ilmiy va gumanitar fanlar bo‘yicha o‘quv vaziyatlari va topshiriqlarning 33 ta modelini o‘z ichiga oladi. Ishlab chiqilgan topshiriqlar o‘quvchilarda “4K” modeli bo‘yicha tanqidiy fikrlash, kreativlik, kommunikatsiya va kooperatsiya kompetensiyalarni shakllantirish imkonini beradi.

Tadqiqot doirasida “4K” modeli bo‘yicha tanqidiy fikrlash, kreativlik, kommunikatsiya va kooperatsiya kompetensiyalarni shakllantirish imkonini beruvchi pedagogik texnikalardan foydalanish yo‘llari ishlab chiqildi. Pedagogik texnika

deganda o‘qituvchilarning ta’limiy faoliyatda qo‘yilgan maqsadlarga to‘liq erishish imkonini beruvchi usullar majmui ko‘zda tutildi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. The Future of the Jobs 12, 2018y
2. Saidova G.H, Halimova H. H “4k” ta’limidagi kompetensiyalar: kreativlik, tanqidiy fikrlash, kommunikatsiya, kooperatsiya. 430-bet, 2023 y.
3. UNESCO. School and teaching practices for twenty-first century challenges: lessons from the Asia-Pacific region, regional synthesis report. — 2016.
4. *Care E., Kim H., Vista A., Anderson K.* Education System Alignment for 21st century skills: Focus On Assessment. — Brookings institution, 2018.